“MAHALLA TIZIMIDA UYUSHMAGAN YOSHLARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI”

Sh.Sh.Haydarov[1]

1. Buxoro xalqaro universiteti Psixologiya va umumiy fanlar kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muallif: Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g‘li, Buxoro xalqaro universiteti Psixologiya va umumiy fanlar kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Haydarov, S. S. “MAHALLA TIZIMIDA UYUSHMAGAN YOSHLARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI” / S. S. Haydarov // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 197–200.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalla tizimida uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Uyushmagan yoshlar, ya’ni ta’lim, mehnat va kasbiy tayyorgarlik jarayonidan chetda qolgan yoshlar ijtimoiy-psixologik xavf guruhi sifatida qaraladi. Maqolada J. Kaplanning profilaktika darajalari konsepsiyasi, jamoaviy psixologiyaning ekologik tamoyillari, S. Koen va T. Uillsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash nazariyasi, R. Patnemning ijtimoiy kapital konsepsiyasi hamda psixologik yordamga murojaat qilish to‘siqlariga oid tadqiqotlar qiyosiy tahlil etiladi. O‘zbekistonda yoshlarning NEET maqomiga oid so‘nggi statistik ma’lumotlar, “mahalla yettiligi”, yoshlar yetakchilari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati psixologik xizmatni tashkil etish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Tahlil asosida uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik tipologiyasi hamda mahalla, tuman va ixtisoslashgan darajalarni bog‘lovchi bosqichli psixologik xizmat modeli taklif etiladi. Mazkur model yoshlar siyosati va ijtimoiy himoya sohasidagi amaliy faoliyatda hamda mahalla xodimlarini tayyorlash dasturlarida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, NEET, mahalla, psixologik xizmat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy kapital, profilaktika, psixologik yordamga murojaat, stigma, bosqichli yordam.

“СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ ДЛЯ НЕОРГАНИЗОВАННОЙ МОЛОДЁЖИ В СИСТЕМЕ МАХАЛЛИ”

Аннотация. В статье анализируются социально-психологические основы организации психологической службы для неорганизованной молодёжи в системе махалли. Неорганизованная молодёжь, то есть молодые люди, находящиеся вне образования, занятости и профессиональной подготовки, рассматривается как социально-психологическая группа риска. Проводится сравнительный анализ концепции уровней профилактики Дж. Каплана, экологических принципов общественной психологии, теории социальной поддержки С. Коэна и Т. Уиллса, концепции социального капитала Р. Патнэма, а также исследований барьеров обращения за психологической помощью. Новейшие статистические данные о молодёжи категории NEET в Узбекистане, деятельность «махаллинской семёрки», лидеров молодёжи махалли и центров социальных услуг «Инсон» рассматриваются с точки зрения возможностей организации психологической службы. На основе анализа предлагаются социально-психологическая типология неорганизованной молодёжи и ступенчатая модель психологической службы, связывающая уровни махалли, района и специализированной помощи. Модель может применяться в практике молодёжной политики и социальной защиты, а также в программах подготовки работников махалли.

Ключевые слова: неорганизованная молодёжь, NEET, махалля, психологическая служба, социальная поддержка, социальный капитал, профилактика, обращение за психологической помощью, стигма, ступенчатая помощь.

“SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ORGANIZING PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR UNORGANIZED YOUTH WITHIN THE MAHALLA SYSTEM”

Abstract. This article examines the socio-psychological foundations for organizing psychological services for unorganized youth within the mahalla (neighbourhood community) system. Unorganized youth, that is, young people who are not in education, employment or training, are treated as a socio-psychological risk group. The article compares G. Caplan’s levels of prevention, the ecological principles of community psychology, S. Cohen and T. Wills’s social support theory, R. Putnam’s concept of social capital and research on barriers to help-seeking for mental health problems. Recent statistics on NEET youth in Uzbekistan and the work of the “mahalla seven”, mahalla youth leaders and the “Inson” social service centres are discussed in terms of their potential for delivering psychological services. On this basis, the article proposes a socio-psychological

typology of unorganized youth and a stepped model of psychological services linking the mahalla, district and specialized levels. The model may be used in youth policy and social protection practice and in training programmes for mahalla staff.

Keywords: unorganized youth, NEET, mahalla, psychological service, social support, social capital, prevention, help-seeking, stigma, stepped care.

Kirish. Yoshlik davri shaxsning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy o‘zligini topish davri bo‘lib, bu davrda ta’lim va mehnat faoliyatidan chetda qolish nafaqat iqtisodiy, balki chuqur psixologik oqibatlarga ham olib keladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va YUNISEFning 2024-yilda e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, 10–19 yoshli bolalar va o‘smirlarning taxminan har yettitasidan biri ruhiy salomatlik buzilishlariga duch keladi, bunda xavotir, depressiya va xulq-atvor buzilishlari eng ko‘p uchraydi. Shuningdek, ruhiy salomatlik buzilishlarining uchdan bir qismi 14 yoshgacha, yarmi esa 18 yoshgacha namoyon bo‘ladi. Bu holat yoshlarga psixologik yordamni erta va ular yashaydigan muhitga yaqin joyda ko‘rsatish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda yoshlar aholining salmoqli qismini tashkil etadi. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga mamlakatda 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 nafarni yoki jami aholining 25,7 foizini tashkil etgan. “Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi” tomonidan Statistika agentligining 2025-yilgi uy xo‘jaliklari byudjeti so‘rovi ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, 14–30 yoshdagi yoshlarning 33,2 foizi ishlamaydi, o‘qimaydi va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmaydi, ya’ni NEET toifasiga kiradi. Bu ko‘rsatkich xotin-qizlar orasida 48,4 foizni, erkaklar orasida esa 19,4 foizni tashkil etadi. Kambag‘al oilalardagi yoshlarning NEET toifasiga tushish ehtimoli 53,9 foizga yetgan bo‘lsa, kambag‘al bo‘lmagan oilalarda bu ko‘rsatkich 32 foizni tashkil etgan. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 15–24 yoshdagi yoshlarning 15 foizi ta’lim, mehnat va kasbiy tayyorgarlikdan chetda bo‘lgan, bu esa mintaqa o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori.

Xalqaro tadqiqotlar ishsizlik va ijtimoiy faoliyatdan chetda qolish ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini izchil tasdiqlaydi. K. Paul va K. Mozerning meta-tahlili ishsiz shaxslar orasida psixologik muammolar ishlayotganlarga nisbatan qariyb ikki baravar ko‘p uchrashini ko‘rsatgan. Demak, uyushmagan yoshlar bilan ishlashda bandlik va ta’limga jalb qilish choralarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirmasdan barqaror natijaga erishish qiyin.

O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlashning mahalla darajasidagi tizimi shakllantirilgan. Prezidentning 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori bilan mahallalarda 9 309 ta yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilgan. Yoshlar yetakchisi mahallada “Yoshlar balansi”ni shakllantirish va yoshlarga oid ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” hamda “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritish vazifasini bajaradi. Mahalla darajasida ijtimoiy-profilaktik ishlar mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat “mahalla yettiligi” tomonidan amalga oshiriladi. 2024-yil 1-iyundan boshlab esa “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko‘rsatila boshlangan. Biroq ushbu tuzilmalar faoliyatida asosiy e’tibor bandlik, moddiy yordam va profilaktikaga qaratilib, yoshlarning psixologik holatini aniqlash va ularga tizimli psixologik yordam ko‘rsatish masalasi hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Jamoat darajasida psixologik yordamni tashkil etishning nazariy asoslaridan biri J. Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan profilaktika darajalari konsepsiyasidir. Unga ko‘ra, birlamchi profilaktika ruhiy muammolarning yuzaga kelishini oldini olishga, ikkilamchi profilaktika ularni erta aniqlash va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishga, uchlamchi profilaktika esa yuzaga kelgan muammolarning oqibatlarini kamaytirish va shaxsni jamiyatga qayta integratsiya qilishga qaratiladi. Uyushmagan yoshlar bilan ishlashda ushbu uch daraja bir vaqtda talab etiladi: ularning bir qismi uchun ijtimoiy faollikni saqlab qolish, boshqalari uchun esa tushkunlik va ijtimoiy chetlanishning oqibatlarini bartaraf etish dolzarb hisoblanadi.

Jamoaviy psixologiyaning ekologik yondashuvi J. Kelli ishlarida asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra psixologik xizmatlar shaxs yashaydigan ijtimoiy muhitning resurslari, me’yorlari va munosabatlar tizimini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv psixologik yordamni faqat mutaxassis kabinetida ko‘rsatiladigan individual xizmat sifatida emas, balki jamoa resurslarini safarbar qiluvchi tizim sifatida talqin qiladi. O‘zbek mahallasi qo‘shnichilik, mehr-oqibat va o‘zaro yordam an’analariga tayanuvchi ijtimoiy muhit sifatida aynan shunday resurslarga ega.

S. Koen va T. Uills ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning stressni yumshatuvchi (bufer) ta’siri gipotezasini asoslab, yaqin insonlar va jamoa tomonidan ko‘rsatiladigan emotsional, axborot va amaliy yordam shaxsning stressli hayotiy vaziyatlarga bardoshliligini oshirishini ko‘rsatgan. R. Patnem esa ijtimoiy kapital tushunchasini ijtimoiy tarmoqlar, ishonch va o‘zaro manfaatli hamkorlik me’yorlari majmui sifatida talqin qilgan. Uyushmagan yoshlar ko‘pincha aynan ana shu ijtimoiy kapitaldan, ya’ni ish topishda, kasb tanlashda va qiyin vaziyatda maslahat olishda yordam beradigan aloqalardan mahrum bo‘ladi. Shu sababli psixologik xizmat yoshlarning ijtimoiy aloqalar tizimini tiklash va kengaytirishga ham yo‘naltirilishi lozim.

Psixologik xizmatni tashkil etishda yoshlarning yordamga murojaat qilish xulq-atvorini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. A. Gulliver, K. Griffits va X. Kristensenning tizimli sharhida yoshlarning ruhiy salomatlik muammolari bo‘yicha yordamga murojaat qilishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida stigma va uyalish hissi, o‘z holatini muammo sifatida anglay olmaslik hamda muammolarni mustaqil hal qilishga intilish ajratilgan. Ijobiy omillar qatorida esa avvalgi ijobiy tajriba, yordam ko‘rsatuvchi shaxsga ishonch va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash qayd etilgan. Ijtimoiy himoya tizimidagi amaliyotchi psixologlar ham O‘zbekiston sharoitida aholining dardini ichiga yutish va muammo o‘z-o‘zidan o‘tib ketishini kutish odati psixologik yordamga murojaat qilishga jiddiy to‘siq ekanini ta’kidlamoqda.

Mutaxassislar yetishmovchiligi sharoitida psixologik yordamni tashkil etishning xalqaro tajribasi ham muhim. P.

Bauer va S. Gilbodi asoslagan bosqichli yordam (stepped care) modeli yordamni eng kam intensiv va eng ommabop shakldan boshlab, zarur hollardagina ixtisoslashgan darajaga o‘tkazishni nazarda tutadi. D. Chibanda va hammualliflarining Zimbabveda o‘tkazgan randomizatsiyalangan nazorat qilinadigan tadqiqotida maxsus tayyorlangan nomutaxassis jamoa a’zolari (“Do‘stlik o‘rindig‘i” dasturi) tomonidan ko‘rsatilgan muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan qisqa psixologik yordam umumiy ruhiy kasalliklar belgilarini kamaytirgani ko‘rsatilgan. Bu natijalar mahalla xodimlarini psixologik birlamchi yordam ko‘nikmalariga o‘rgatish orqali xizmat qamrovini kengaytirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Metodlar. Tadqiqotda nazariy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish, O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va rasmiy statistik ma’lumotlarni kontent-tahlil qilish, tipologiyalash hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Statistik ma’lumotlar Milliy statistika qo‘mitasi, Jahon banki, Yoshlar ishlari agentligi va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti nashrlaridan olindi.

Tahliliy natijalar

Nazariy tahlil va mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish uyushmagan yoshlarni yagona bir xil guruh sifatida emas, balki psixologik holati va ehtiyojlari bilan farq qiluvchi kichik guruhlar majmui sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda uyushmagan yoshlarning quyidagi ijtimoiy-psixologik tipologiyasi taklif etiladi. Birinchi tip – “faol izlanuvchilar”: ta’lim yoki ishdan vaqtincha chetda qolgan, ammo motivatsiyasi va maqsadlari saqlangan yoshlar. Ularga asosan kasbiy yo‘naltirish va axborot yordami zarur. Ikkinchi tip – “tushkunlikka tushganlar”: uzoq muddatli muvaffaqiyatsizliklar natijasida o‘ziga ishonchi pasaygan, o‘rganilgan ojizlik va depressiv holat belgilari kuzatiladigan yoshlar. Uchinchi tip – “oilaviy majburiyatlar bilan cheklanganlar”: asosan uy xo‘jaligi va farzand tarbiyasi bilan band bo‘lgan yosh xotin-qizlar. Ularga ijtimoiy izolyatsiya va o‘zini amalga oshira olmaslik bilan bog‘liq psixologik qiyinchiliklar xos. To‘rtinchi tip – “xavf guruhidagilar”: huquqbuzarlikka moyil, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan, mehnat migratsiyasidan muvaffaqiyatsiz qaytgan yoki psixofaol moddalarni iste’mol qilish xavfi bo‘lgan yoshlar. Har bir tip uchun psixologik yordamning mazmuni va intensivligi farqlanishi lozim. Bunday tabaqalashtirilgan yordamni amalga oshirish uchun mahalla tizimida quyidagi bosqichli psixologik xizmat modeli taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Mahalla tizimida uyushmagan yoshlarga bosqichli psixologik xizmat ko‘rsatish modeli

Daraja	Ijrochilar	Psixologik vazifalar	Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar
1. Mahalla darajasi: aniqlash va birlamchi qo‘llab-quvvatlash	Yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, xotin-qizlar faoli (psixologik birlamchi yordam bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan)	Xonadonbay suhbatlar, qisqa psixologik skrining, psixologik ma’rifat, ishonchli muloqot o‘rnatish, mutaxassisga yo‘naltirish	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ishonch, stigmani kamaytirish, yordamga murojaat qilish to‘siqlarini pasaytirish
2. Tuman darajasi: malakali psixologik yordam	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlari, kasbiy yo‘naltirish mutaxassislari	Individual va guruhiy maslahat, motivatsion va kasbiy yo‘naltirish treninglari, oilaviy maslahat	O‘z-o‘zini samaradorlikni tiklash, maqsad qo‘yish, o‘rganilgan ojizlikni yengish
3. Ixtisoslashgan daraja	Psixiatr, narkolog, psixoterapevt, reabilitatsiya muassasalari	Og‘ir ruhiy holatlar, suitsidal xavf, qaramlik holatlarida ixtisoslashgan yordam va reabilitatsiya	Uchlamchi profilaktika, idoralararo yo‘llanma va hamkorlik
4. Ijtimoiy integratsiya va kuzatuv	Yoshlar yetakchisi, mentorlar, tengdoshlar guruhlari, ish beruvchilar, ta’lim muassasalari	Bandlik va ta’limga jalb qilish, volontyorlik, mentorlik, natijalarni kuzatib borish	Ijtimoiy kapitalni kengaytirish, guruhga mansublik, ijtimoiy identiklikni mustahkamlash

Modelning birinchi darajasi mahallada amalga oshiriladi va butun tizimning asosi hisoblanadi. Yoshlar yetakchisi va ijtimoiy xodim uyushmagan yoshlar bilan xonadonbay ishlash jarayonida ularning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, balki psixologik holatini ham baholashi lozim. Buning uchun qisqa va qo‘llash oson bo‘lgan skrining vositalari, masalan, kayfiyat, uyqu, kelajakka umid va ijtimoiy aloqalarga oid bir necha savoldan iborat so‘rovnomalar ishlab chiqilishi va ularni qo‘llash bo‘yicha mahalla xodimlari o‘qitilishi zarur. Bu darajada ishonchli muloqot o‘rnatish muhim, chunki yoshlarning psixologik yordamga murojaat qilishi ko‘p jihatdan yordam ko‘rsatuvchi shaxsga bo‘lgan ishonchga bog‘liq.

Ikkinchi daraja tuman miqyosida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari psixologlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu darajada asosiy e’tibor ikkinchi va uchinchi tipdagi yoshlarga qaratiladi. Tushkunlikka tushgan yoshlar bilan ishlashda kichik, ammo muvaffaqiyatli qadamlar orqali o‘z-o‘zini samaradorlikni tiklash, real maqsadlar qo‘yish va ularga erishish ko‘nikmalarini shakllantirish samarali hisoblanadi. Oilaviy majburiyatlar bilan cheklangan yosh xotin-qizlar uchun esa mahallaga yaqin joyda tashkil etiladigan guruhiy mashg‘ulotlar, kasanachilik va masofaviy ta’lim imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Uchinchi daraja og‘ir ruhiy holatlar, suitsidal xavf yoki psixofaol moddalarga qaramlik belgilari aniqlangan hollarda ishga tushadi. Bu darajada mahalla xodimining vazifasi mustaqil yordam ko‘rsatish emas, balki xavf belgilarini o‘z vaqtida aniqlash va yoshni tegishli mutaxassisga yo‘naltirishdan iborat. Shu sababli mahalla, “Inson” markazlari va sog‘liqni saqlash muassasalari o‘rtasida aniq yo‘llanma tartibi va ma’lumot almashinuvi qoidalari belgilanishi lozim.

To‘rtinchi daraja psixologik yordamni ijtimoiy integratsiya bilan bog‘laydi. Psixologik holati yaxshilangan yoshni bandlik, ta’lim yoki volontyorlik faoliyatiga jalb qilmasdan qoldirish erishilgan natijaning yo‘qolishiga olib keladi. Aksincha, mazmunli faoliyat, tengdoshlar guruhiga mansublik va mentorning qo‘llab-quvvatlashi yoshning ijtimoiy kapitalini kengaytiradi va uning ijobiy ijtimoiy identikligini mustahkamlaydi. Yoshlar ishlari agentligi ma’lumotlariga ko‘ra,

2025-yilda 414 mingdan ortiq yosh bandlik va tadbirkorlik dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlangan, 115 751 nafar ishsiz yoshga esa davlat idoralari rahbarlari biriktirilib, individual ishlash mexanizmi joriy etilgan. Ushbu individual ishlash mexanizmiga psixologik baholash va qo‘llab-quvvatlash elementlarini kiritish uning samaradorligini oshirishi mumkin.

Muhokama

Olingan natijalar uyushmagan yoshlar muammosini faqat bandlik muammosi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ish o‘rni yoki kredit taklif etilganda ham, o‘ziga ishonchi pasaygan, kelajakka umidini yo‘qotgan yoki ijtimoiy aloqalardan uzilgan yosh bu imkoniyatdan foydalanmasligi mumkin. Shu sababli psixologik tayyorlik ijtimoiy-iqtisodiy choralarning samaradorligini ta’minlovchi zaruriy shart sifatida qaralishi lozim.

Ikkinchi muhim masala – xotin-qizlar orasidagi NEET ko‘rsatkichining yuqoriligi. Yosh ayollarning qariyb yarmi ta’lim va mehnatdan chetda ekani bu guruhga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Ularning ko‘pchiligi o‘zini “uyushmagan” deb hisoblamaydi, chunki oilaviy majburiyatlarni bajaradi. Biroq ijtimoiy izolyatsiya, o‘zini amalga oshira olmaslik va iqtisodiy qaramlik ularning psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois bu guruh bilan ishlashda xotin-qizlar faoli va ayol psixologlarning ishtiroki, oilaviy kontekstni hisobga oluvchi yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, psixologik yordamga nisbatan stigma va uni “ruhiy kasallar uchun” deb qabul qilish mahalla sharoitida jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Mahallaning yopiqroq ijtimoiy muhiti bir tomondan ishonch va qo‘llab-quvvatlash manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan maxfiylik buzilishidan xavotirni kuchaytiradi. Shu sababli psixologik xizmatni “psixologik maslahat” yoki “shaxsiy rivojlanish” kabi neytral shakllarda taqdim etish, maxfiylik tamoyiliga qat’iy rioya qilish hamda mahalla xodimlarini psixologik etika asoslariga o‘rgatish zarur.

Xulosa. Uyushmagan yoshlar O‘zbekistonda katta va ijtimoiy-psixologik jihatdan turli-tuman guruhni tashkil etadi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ularga psixologik xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil etish profilaktika darajalari, jamoaviy psixologiyaning ekologik tamoyillari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy kapital konsepsiyalari hamda yordamga murojaat qilish to‘siqlarini hisobga olishga asoslanishi lozim.

Uyushmagan yoshlarni faol izlanuvchilar, tushkunlikka tushganlar, oilaviy majburiyatlar bilan cheklanganlar va xavf guruhidagilar tiplariga ajratish psixologik yordamni tabaqalashtirish imkonini beradi. Taklif etilgan bosqichli model mahalla, tuman va ixtisoslashgan darajalarni hamda ijtimoiy integratsiya bosqichini yagona tizimga birlashtiradi. Unda mahalla aniqlash va birlamchi qo‘llab-quvvatlash maydoni, “Inson” markazlari malakali psixologik yordam markazi, ixtisoslashgan muassasalar esa og‘ir holatlarda yordam ko‘rsatuvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Amaliy jihatdan yoshlar yetakchilari va ijtimoiy xodimlarni psixologik birlamchi yordam va qisqa skrining ko‘nikmalariga o‘qitish, “Yoshlar daftari” tizimiga psixologik holat ko‘rsatkichlarini kiritish, mahalla va “Inson” markazlari o‘rtasida yo‘llanma tartibini belgilash hamda yosh xotin-qizlar uchun mahallaga yaqin guruhiy psixologik qo‘llab-quvvatlash shakllarini joriy etish tavsiya etiladi. Taklif etilgan tipologiya va modelni empirik sinovdan o‘tkazish keyingi tadqiqotlarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori.

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. Yoshlar bandligi va tadbirkorlik: 2025-yil yakunlari. – Toshkent, 2026.

[4] Bower P., Gilbody S. Stepped Care in Psychological Therapies: Access, Effectiveness and Efficiency // British Journal of Psychiatry. – 2005. – Vol. 186, No. 1. – P. 11–17.

[5] Caplan G. Principles of Preventive Psychiatry. – New York: Basic Books, 1964. – 304 p.

[6] Chibanda D., Weiss H.A., Verhey R. et al. Effect of a Primary Care-Based Psychological Intervention on Symptoms of Common Mental Disorders in Zimbabwe: A Randomized Clinical Trial // JAMA. – 2016. – Vol. 316, No. 24. – P. 2618–2626.

[7] Cohen S., Wills T.A. Stress, Social Support, and the Buffering Hypothesis // Psychological Bulletin. – 1985. – Vol. 98, No. 2. – P. 310–357.

[8] Gulliver A., Griffiths K.M., Christensen H. Perceived Barriers and Facilitators to Mental Health Help-Seeking in Young People: A Systematic Review // BMC Psychiatry. – 2010. – Vol. 10. – Art. 113.

[9] Kelly J.G. Ecological Constraints on Mental Health Services // American Psychologist. – 1966. – Vol. 21, No. 6. – P. 535–539.

[10] Paul K.I., Moser K. Unemployment Impairs Mental Health: Meta-Analyses // Journal of Vocational Behavior. – 2009. – Vol. 74, No. 3. – P. 264–282.

[11] Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.

[12] World Bank. Uzbekistan: Human Capital Country Brief. – Washington, DC: World Bank, 2025.

[13] World Health Organization, UNICEF. Mental Health of Children and Young People: Service Guidance. – Geneva: WHO, 2024.